

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BADIIY ASARLARDA BOLA OBRAZINING GENEZISI VA EVOLYUTSION RIVOJI

Mavlyanova Shahnoza Dehqonboevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi.

e-mail: mavlyanovashahnoza02@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0008-5337-1549>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada badiiy asarlarda bola obrazining genezisi va evolyutsiyasi masalalari keng tahlil qilinadi. Tadqiqotda bola obrazi qadimgi davr adabiy-estetik qarashlaridan boshlab, xususan, Arastu poetikasida ilgari surilgan badiiy obraz haqidagi nazariy qarashlar asosida yoritilib, uning jahon va o'zbek adabiyotidagi taraqqiyot bosqichlari izchil tahlil etiladi. Maqolada bola obrazining dastlab ikkinchi darajali personaj sifatida namoyon bo'lishi, keyinchalik esa mustaqil badiiy-estetik qimmat kasb etgan markaziy obrazga aylanish jarayoni ochib beriladi. Shuningdek, turli davrlarda bolaga bo'lgan estetik va ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi, uning ruhiy olami, ichki kechinmalari, orzu-intilishlari hamda dunyoni idrok etish xususiyatlari badiiy talqindagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bola obrazining tarixiy taraqqiyoti, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi, zamonaviy adabiyotda esa psixologik tasvir, individual xarakter va badiiy tafakkurning muhim vositasiga aylanganligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: bola obrazi, bolalik davri, genesis, evolyutsiya, tadrij.

ГЕНЕЗИС И ЭВОЛЮЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ОБРАЗА РЕБЁНКА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Мавлянова Шахноза Дехконбоевна

Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель.

Аннотация.

В данной статье всесторонне анализируются вопросы генезиса и эволюции образа ребёнка в художественной литературе. Исследование рассматривает становление образа ребёнка начиная с античных литературно-эстетических представлений, в частности, с теоретических взглядов Аристотеля на художественный образ, и последовательно прослеживает основные этапы его развития в мировой и узбекской литературе. В статье раскрывается процесс трансформации образа ребёнка: от второстепенного персонажа к самостоятельному центральному художественно-эстетическому образу. Кроме того, анализируются изменения эстетического и общественного отношения к ребёнку в различные исторические эпохи, особенности изображения его внутреннего мира, душевных переживаний, мечтаний, стремлений и восприятия окружающей действительности в контексте эволюции художественного осмысления. В ходе исследования научно обосновывается историческое развитие образа ребёнка, его взаимосвязь с национальными и общечеловеческими ценностями, а также его превращение в современной литературе в важное средство психологического изображения, раскрытия индивидуального характера и художественного мышления.

Ключевые слова: образ ребёнка, детство, генезис, эволюция, развитие.

THE GENESIS AND EVOLUTIONARY DEVELOPMENT OF THE CHILD IMAGE IN LITERARY WORKS

Mavlyanova Shahnoza Dehqonboevna

Jizzakh State Pedagogical University, Lecturer.

Abstract.

This article provides a comprehensive analysis of the genesis and evolution of the child image in fiction. The study examines the formation of the child image beginning with the literary and aesthetic concepts of antiquity, particularly Aristotle's theoretical views on artistic representation, and systematically traces its major stages of development in world and Uzbek literature. The paper explores the transformation of the child image from a secondary character into an independent central artistic and aesthetic figure. It

also analyzes the changing aesthetic and social perceptions of childhood across different historical periods, highlighting the literary representation of children's inner world, emotional experiences, dreams, aspirations, and perception of reality in relation to the evolution of artistic interpretation. Furthermore, the study substantiates the historical development of the child image, its integration with national and universal values, and its emergence in modern literature as an important means of psychological characterization, the portrayal of individual identity, and artistic expression.

Keywords: child image, childhood, genesis, evolution, development.

Kirish. Badiiy adabiyotda bolalik tasviri hamda bola obrazining genezisi va tadrijiy taraqqiyotini tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo ko'lamini keng va tarixiy ildizlari chuqur bo'lgani bois, uni har tomonlama yoritish ilmiy izchillik va muayyan tadqiqot chegaralarini belgilashni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, bolalik tasviri va bola obrazining nazariy asoslarini aniqlash, uning badiiy-estetik hamda ilmiy manbalarini o'rganish, shuningdek, o'zbek adabiyoti tarixida bolalik tasviri aks etgan epik asarlarni qiyosiy-tarixiy aspektida tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bola obrazi, avvalo, folklor va mumtoz adabiyotimizning haqli ravishda vorisi hisoblanadi. O'zbek xalqining hayot tarzi, ma'naviy dunyosi, tarixiy xotirasi va epik tafakkuri qadimdan nasriy asarlarda o'zining badiiy ifodasini topib kelgan. Bu holat milliy adabiyotning uzviy rivojlanish qonuniyatlarini anglashga imkon beradi. Shuningdek, motiv, detal, obraz va syujet kabi badiiy unsurlarning poetik tizimi hozirgi **o'zbek** adabiyoti nasrida ham davom etib, davr ruhiga mos ravishda yangicha mazmun va talqinlar kasb etgani adabiy vorisiylarning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Binobarin, har qanday adabiy-estetik hodisa o'z mohiyatiga ko'ra tarixiy tajriba, an'ana va badiiy meros negizida shakllanadi.

Bola obrazi va bolalik tasvirining ilk namunalari diniy manbalarda, xususan, **Qur'oni karim** va hadisi shariflarda uchraydi. Ushbu manbalarda bolaga Allohning ne'mati, jamiyatning kelajagi va tarbiyaning muhim obyekti sifatida qaraladi. Ayniqsa, yetim bolalar masalasiga alohida e'tibor qaratilib, ularning haq-huquqlarini himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga mehr-muruvvat ko'rsatish targ'ib etiladi [1; 89]. Qur'onda yetim bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, ularning mol-mulkini asrash va kamsitmaslik haqida ko'plab oyatlar mavjud. Masalan, **Kahf** surasining 82-oyatida: **«Endi devor esa, shu shahardagi ikki yetim bolani bo'lib, uning ostida ular uchun bir xazina bor edi...»** deb keltiriladi. Ushbu oyat hadisda Muso va Hizr qissasi orqali izohlanadi: **«O'sha devor qishloqdagi ikki yetim bolaning devori edi. Devorning tagida xazina bor edi. Agar u yiqilsa, xazina ochilib qolardi, odamlar uni talab ketishardi va ularga hech narsa qolmas edi. Allohning istagi yetimlar balog'atga yetguncha devor yiqilmasligi, xazina ochilmasligi edi. Shu yetim bolalarning otasi yaxshi odam bo'lgani bois, ikki aziz bandasi – avliyo va payg'ambarini Alloh, hatto Qur'onda ismi ham keltirilmagan noma'lum bo'lgan ikki yetim bolaga tekin mardikor qilib qo'ydi»** [2; 90].

Shuningdek, **Qur'oni karimning «Niso»** surasi 2-, 3-, 5-, 6-, 8-, 9- va 10-oyatlarida yetim bolalar va ularning huquqlariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur surada oila munosabatlari, nikoh, meros taqsimoti, ijtimoiy adolat hamda yetim bolalarga nisbatan mas'uliyat kabi muhim masalalar keng yoritiladi. Oyatlarda yetimlarning mol-mulki va huquqlarini asrash, ular balog'at yoshiga yetgach, o'z haqlarini to'liq topshirish lozimligi ta'kidlanadi. Bu ezgu va savobli amal sifatida baholansa, aksincha, ularning haqini o'zlashtirish yoki qaytarmaslik og'ir gunoh sanaladi.

Jumladan, oyatlarda yetim bolalarning mol-mulkiga xiyonat qilish, uni o'z manfaatlarini yo'lida sarflash yoki merosini asossiz ravishda egallab olish qat'iyan man etiladi. Alloh taolo insonlarni yetim bolalar haqidan qo'rqishga, ularga tegishli boyliklarni ehtiyotkorlik bilan saqlashga va ularni voyaga yetgunlariga qadar adolat bilan boshqarishga da'vat etadi. Ayniqsa, yetim bolalarning merosini ular ulg'ayib qolmasidan avval shoshilinch ravishda o'zlashtirib yuborishdan ogohlantiriladi. Boy kishilar yetimlarning moliga mutlaqo tegmasliklari, kambag'al vasiylar esa zarurat bo'lgandagina me'yor doirasida foydalanishlari lozimligi uqtiriladi. Shu tariqa **«Niso»** surasidagi ushbu oyatlar yetimlarning huquqlarini himoya qilish, ularga mehr-shafqat va adolat bilan munosabatda bo'lishning muhim diniy va axloqiy tamoyillarini belgilab beradi [3; 71].

Hadislarda esa yetim bolalarga g'amxo'rlik qilish yuksak insoniy fazilat sifatida talqin etiladi. Shu bois diniy manbalarda yaratilgan bola obrazi keyinchalik Sharq adabiyoti va xalq og'zaki ijodidagi bolalik tasvirlarining shakllanishiga muhim ma'naviy asos bo'lib xizmat qilgan. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: **«Men jannat eshigini birinchi bo'lib ochuvchi shaxsman. Faqat bir ayol mendan ildamroq ekanini ko'raman. Undan: «Sen kimsan?» – deb so'rayman. U: «Men yetim bolalarimga qarab o'tirgan ayolman», – deydi»** [4; 23]. (Abu Ya'lo rivoyati.)

Hadislarda yetim bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularni tarbiyalashning ulkan savob ekani alohida ta'kidlanadi. Xususan, Imom al-Buxoriyning sahih hadislar to'plamida yetim bolalarning haqqi, ularga mehr-muruvvat ko'rsatish va ularning ta'minotiga mas'ul bo'lish bilan bog'liq ko'plab hadislar keltirilgan. Ushbu hadislarda yetimlarning parvarishi bilan shug'ullangan, ularning hayoti va tarbiyasiga mas'uliyat bilan yondashgan kishilarning maqomi yuksak ekani qayd etiladi. Ayniqsa, yetim bolalarni voyaga yetkazish yo'lida fidoyilik ko'rsatgan ayollarning ulug' ajr va mukofotga sazovor bo'lishlari e'tirof etiladi. Jumladan, hadislarda inson qalbiga quvonch ulashish, uning dardini yengillashtirish va ko'nglini ko'tarish eng fazilatli amallardan biri sifatida talqin qilinadi. Bu ezgu amal, ayniqsa, ota-onasi mehridan mahrum bo'lgan yetim bolalarga nisbatan amalga oshirilganda, yanada katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois islom ta'limotida yetimlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr ko'rsatish va jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida voyaga yetishiga ko'maklashish yuksak insonparvarlik va savobli amal sifatida baholanadi.

Xalq og'zaki ijodi janrlarida ham bola obrazini o'rganish, bir qarashda, asosiy tadqiqot mavzusidan chetga

chiqishdek tuyulishi mumkin. Biroq ushbu obrazning tarixiy shakllanish jarayonini to'liq anglash uchun folklor manbalariga murojaat qilish, qadimgi mif, afsona va ertaklarda bolalik tasvirining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish zarur hisoblanadi. Shu sababli bola timsolining eng dastlabki ko'rinishlarini aynan mifologik tasavvurlardan izlash maqsadga muvofiqdir. Miflar inson tafakkurining eng qadimiy va tabiiy shakli sifatida adabiyot tarixida muhim o'rin egallaydi. Qadim zamonlarda ibtidoiy inson o'zini tabiatdan aniq ajratib ko'ra olmaganligi sababli, atrof-muhitdagi obyektlarga insoniy xususiyatlarni yuklagan. Natijada fetisizm, totemizm va animizm kabi tasavvurlar shakllanib, ular borliqni «insonlashtirish» jarayonidan kelib chiqqan. **«Mifologik lug'at»**da qayd etilishicha, miflar odatda xudolar bilan bog'liq qahramonlar, ibtidoiy davrda yashagan va olamning tabiiy hamda madaniy unsurlarining yaratilishida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan ajdodlar haqidagi rivoyatlar sifatida talqin etiladi [5; 32].

Mazkur ta'rifda tilga olingan «ibtidoiy avlodlar» adabiy motiv va obrazlarning shakllanishiga asos bo'lganligi, shuningdek, mifologik tasavvurlarda bolalikning boshlang'ich badiiy ifodasi mujassam ekanligi tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qadimgi yunon mifologiyasida Zevs chaqaloqligida otasi Kronosdan yashirilgan holda Krit orolida dunyoga keladi va maxfiy tarzda tarbiyalanadi. Uni onasi Reya qutqarib qolib, g'or ichida yashirin joyda nimfalar parvarishiga topshiradi. Zevs bolalik davrini xavf-xatardan yiroq, ilohiy himoya ostida o'tkazadi va shu muhit uning kelajakdagi qudratli hukmdor sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Rivoyatlarda uning yashirin tarbiyasi «tanlangan qahramon» motivini ifodalaydi. Natijada Zevs voyaga yetib, adolatli va qudratli oliy xudoga aylanadi [6; 78]. Xuddi shunday, Asena haqidagi turkiy mifologik rivoyatlar qadimgi turkiy xalqlarning etnogenezi va kelib chiqish tasavvurlarida muhim o'rin egallaydi. Ushbu afsonalarga ko'ra, janglarda yoki tabiiy ofatlar oqibatida ota-onasidan ajralib qolgan go'dak yoki yetim bola tabiatning muqaddas kuchi sifatida tasavvur qilingan bo'ri tomonidan topib olinadi va asrab voyaga yetkaziladi. Bo'ri bu o'rinda oddiy hayvon emas, balki himoyachi, yo'l boshchi va ilohiy qudrat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Rivoyatlarda aynan shu bola va bo'ri o'rtasidagi aloqadan keyinchalik turkiy urug' yoki qavmning kelib chiqishi izohlanadi. Bola tabiat bag'rida, yovvoyi muhitda tarbiyalanishi orqali kuch, chidamlilik va erkinlik ruhini egallaydi. Bu jarayon esa tabiat va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalovchi mifologik qarashlarning muhim ko'rinishidir [7; 50]. Shu bois Asena afsonasi nafaqat bolani qutqarish motivini, balki etnik kelib chiqish g'oyasini ham o'zida mujassam etadi. Unda bola obrazi butun bir millatning boshlanishi, uning ildizi va kelajak avlodlarining ramzi sifatida talqin qilinadi. Natijada mazkur mif turkiy xalqlarning o'zligini anglash va tarixiy xotirasini shakllantirishda muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotshunos Nasimxon Rahmonovning ta'kidlashicha, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari, qadimgi xitoy, arab va fors manbalari qadimgi turkiy miflarning manbai hisoblanadi. Kosmogonik miflarda aytilishicha, turkiylar Oyni, Yerni – ona, Osmonni, Quyoshni – ota deb tasavvur qilganlar. Ularning nikohidan bolalar – yulduzlar tug'iladi: **«Kunlardan bir kun nimayam sabab bo'lib, er-xotin urishib qolishibdi. Kun zarda qilibdi, Oy arazlabdi. Bo'lganda bolalarga qiyin bo'libdi»** [8; 89]. Mazkur kosmogonik mifda Quyosh va Oy o'rtasidagi munosabatlar insoniyashtirilgan holda tasvirlanib, ularning «nikohi» natijasida yulduzlar – ya'ni farzandlar dunyoga kelishi haqidagi tasavvur ilgari suriladi. Bu jarayonda bola obrazi yulduzlar timsolida namoyon bo'lib, u koinotning tartibi va uzluksizligining ramzi sifatida talqin etiladi. Mifda ota-onaning janjali va ajralishi bolalar – yulduzlar uchun noqulay vaziyat yaratishi orqali bola obrazi himoyasizlik va tabiat kuchlariga bog'liqlik holatida beriladi. Shu bilan birga, bu tasavvur kosmos va insoniy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalab, bola obrazini yaratuvchanlik va davomiylik ramziga aylantiradi. Bundan tashqari, turkiy mifologiyada Umay kulti ham mavjud bo'lib, u qadimgi tasavvurlarda Umay Tangrining umr yo'ldoshi sifatida talqin qilingan. U onalar va bolalarni himoya qiluvchi muqaddas iloh sifatida e'tirof etiladi. Mahmud Koshg'ariy **«Devonu lug'otit turk»** asarida Umay haqida to'xtalib, uni: **«Umay – yo'ldosh (tug'qan xotinlar qornidan chiqadigan narsa)»** deb izohlaydi. Ya'ni Umay bola bilan birga tug'iladigan, uni homiladorlik davrida kuzatib boruvchi ruhiy hamroh sifatida tasavvur qilingan [8; 76]. Mifologik qarashlarga ko'ra, kim Umayga e'tiqod qilsa, o'g'il farzand ko'rish baxtiga erishadi. Qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha Umay haqidagi tasavvurlar bolalar va onalarni asrovchi iloh sifatida xalq ongida saqlanib kelgan. Umuman olganda, turkiy miflarda bola obrazi sof inson qiyofasida emas, balki mifologik tafakkurga xos ravishda tabiat hodisalari va ramziy timsollar orqali ifodalanadi. Masalan, **«Oy bilan Kun»** mifida bolalar – yulduzlar, **«Aziz momo va uning o'g'illari»** mifida esa Ahmon va Dahmon – ayoz ramzi sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, miflarda bolalik bilan bog'liq tafsilotlar keng va batafsil yoritilmaydi. Demak, kuzatishlarimizdan anglashiladiki, bola obrazining tarixiy-tajriba asosidagi takomillashuvi ijobiy va uzluksiz rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Bu jarayon qadimiy ilohiy kitoblarda, miflarda, afsonalarda, ertaklar, dostonlar hamda yozma adabiyot janrlarida bosqichma-bosqich shakllanib, tobora mukammallashib borgan. Har bir davr va janr bola obraziga o'ziga xos mazmun, ramziy ma'no va badiiy yuklama qo'shib, uning adabiy talqinini boyitgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norbaboyeva M. T. Hozirgi o'zbek nasrida yetim bola obrazining poetik talqini: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2024. – B. 25.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Tafsir Books, 2022. – B. 579.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Tafsir Books, 2022. – B. 593.
4. Imom al-Buxoriy. Jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 3-jild. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – B. 314.
5. Мелетинский Е. М. Мифологический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1991. – С. 653.
6. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi (eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017.
7. Mirzayev T. va boshq. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – B. 231.
8. Mirzayev T. va boshq. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – B. 231.